

KASBIY STANDART

Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati operatorlik ishlari

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati operatorlik ishlari kasbiy standarti bo'yicha Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori, Metall kesuvchi avtomat uskunalar operatori, Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

elektr qurilmasi — elektr energiyasini ishlab chiqarish, transformatsiya qilish, uzatish, taqsimlash hamda uni energiya boshqa turiga aylantirish uchun mo'ljallangan mashinalar, apparatlar, elektr uzatish liniyalari va yordamchi uskunalar yig'indisi (ular o'rnatilgan inshootlar va binolar bilan birgalikda);

elektr himoya vositalari — elektr qurilmalarida ishlayotgan odamlarni elektr tokidan jarohatlanishdan, elektr yoy va elektromagnit maydoni ta'siridan himoya qilish uchun xizmat qiladigan, holda o'zi bilan va transportda olib yuriladigan vositalar;

informal ta'lim — aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

ish joyi — xodimlar ishlarni bajarish uchun ishga qo'yiladigan elektr qurilmaning uchastkasi. Faqat naryad yoki farmoyish bo'yicha ishlar ko'zda tutilgan ish joyiga taalluqli;

ish joyini tayyorlash — ish xavfsiz bajarilishini ta'minlash uchun ish joyida bajariladigan texnik tadbirlar;

ishlab turgan elektr qurilma — kuchlanish ostida bo'lgan yoki kommutatsiya apparatlarini ulash bilan kuchlanish berilishi mumkin bo'lgan elektr qurilmasi yoki uning qismi;

kasb — ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi — kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart — kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat;

kasbiy standartlar reyestri — bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati;

kasbiy faoliyat sohasi — ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi — xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kompetensiya — bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko'nikma — mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka — tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi — xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi — mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi — mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari — xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi — kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta'lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

kommutatsiya apparati — elektr zanjirlarini kommutatsiya qilish va tok o'tkazish uchun mo'ljallangan elektr apparati (o'chirgich, yuklama o'chirgichi, bo'lgich, ajratgich, avtomat, rubilnik, paketli o'chirgich, saqlagich va hokazolar);

kuchlanish ostidagi ish — kuchlanish ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismlarga tegib bajariladigan yoki ushbu tok o'tkazuvchi qismlarga ruxsat etilganidan kam masofaga yaqinlashib bajariladigan ishlar;

ma'muriy-texnik xodimlar — elektr energetika sohasidagi tashkilotlarning rahbarlari, bo'lim boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, zimmasiga ma'muriy vazifalar yuklatilgan muhandislar, texniklar va ustalar;

mahalliy navbatchi xodimlarsiz elektr qurilma — tezkor chiqish brigadalari (keyingi o'rinlarda — TCHB) yoki tezkor ta'mirlash xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan elektr qurilma, HL va elektr uzatish kabel liniyasi (keyingi o'rinlarda — KL);

mexanizmlar — gidravlik ko'targichlar, teleskopik minoralar, ekskavatorlar, traktorlar, avtoyuklagichlar, burg'ulash-kran mashinalari, mexanik uzatma yordamida uzaytirish yoki qisqartirish mumkin bo'lgan narvonlar va hokazolar;

mexanik qulf — kalit, olinadigan dastak va hokazolar bilan berkitiladigan qulf;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-20-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi "Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda texnika xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi 638-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

LOYIHA

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati operatorlik ishlari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Texnik jarayonlarni, uskuna va qurilmalarni samarali, xavfsiz va sifatli boshqarish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz va belgilangan standartlarga muvofiq bajarilishini ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	C seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat 33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va o'rnatish 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.14 Elektr uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.14.0 Elektr uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Operator ishlab chiqarish jarayonlarida elektrotexnika va mashinasozlik uskuna va qurilmalarini nazorat qilish, ishlashini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda xavfsizlik va sifat standartlariga rioya qilish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72232002 Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori	2
		72232007 Metall kesuvchi avtomat uskunalari operatori	3
		72231020 Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi	nomi	kodi	nomi
1	72232002 Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori	A1.2	Ishlab chiqarish liniyasini ishga tayyorlash va ishga tushirish	A1.01.2	Ish joyini va liniya elementlarini ishlab chiqarish jarayoni uchun tayyorlash
				A1.02.2	Texnologik kartalarga muvofiq dastgohlarni sozlash va ishga tushirish
				A1.03.2	Ishlab chiqarish jarayonini boshlashdan oldin sinov ishlarini amalga oshirish
		A2.2	Dastgoh va qurilmalarning ishlash jarayonini kuzatish va boshqarish	A2.01.2	Liniya faoliyatini doimiy monitoring qilish, jarayon parametrlari (tezlik, bosim, harorat)ni kuzatish
				A2.02.2	Ish jarayonida yuzaga kelgan oddiy nosozliklarni bartaraf etish
				A2.03.2	Texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlik talablari bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish
		A3.2	Mahsulot sifatini nazorat qilish va ishlab chiqarish natijalarini rasmiylashtirish	A3.01.2	Tayyor mahsulotni vizual va o'lchov vositalari orqali tekshirish
				A3.02.2	Sifat me'yorlariga mos kelmagan mahsulotlarni ajratish va xabar berish
				A3.03.2	Ish natijalarini ishlab chiqarish hisobotida qayd etish
2	72232007 Metall kesuvchi avtomat uskunalar operatori	B1.3	Metall kesuvchi avtomat uskunalarini ishga tayyorlash	B1.01.3	Ish joyini mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq tayyorlash, zarur asbob-uskunalar va texnik hujjatlarni tekshirish
				B1.02.3	Metall kesuvchi avtomat dastgohlarni dastlabki sozlash va kalibrlash ishlarini bajarish
				B1.03.3	Ishga tushirishdan oldin dastgohlarning texnik holatini, sovutish va moylash tizimlarini nazorat qilish
		B2.3	Metall kesuvchi avtomatlarda ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish	B2.01.3	Ishlab chiqarish topshiriqlariga muvofiq metallni kesish, silliqlash, parmalash yoki frezalash amallarini bajarish
				B2.02.3	Avtomat uskunalarda metall detallarni joylashtirish va ularning o'lchamlarini texnik chizmalar asosida nazorat qilish

3	72231020 Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi	B3.3	Ish natijalarini nazorat qilish va texnik xizmat ko'rsatish	B2.03.3	Jarayon davomida uskuna ishini kuzatish, og'ishlar yoki nosozliklarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'rish
				B3.01.3	Tayyor detallarni sifat talablariga muvofiqligini o'lchov asboblari yordamida tekshirish.
				B3.02.3	Metall kesuvchi avtomatlarning profilaktik texnik xizmatini o'z vaqtida bajarish.
				B3.03.3	Ish natijalari va ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha texnik hujjatlarni to'ldirish va hisobot berish
	72231020 Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi	D1.3	Metallga ishlov berish joyini tayyorlash va texnik hujjatlar bilan ishlash	D1.01.3	Ish joyini ishlab chiqarish topshirig'iga muvofiq tayyorlash, zarur asbob-uskunalar va o'lchov moslamalarini joylashtirish
				D1.02.3	Texnik hujjatlar (chizma, texnologik xarita, texnik topshiriq)ni o'qish va tushunish
				D1.03.3	Xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish intizomi va sanitariya me'yorlariga rioya etish
		D2.3	Metallga ishlov berish jarayonini bajarish	D.2.01.3	Maxsus dastgohni ishga tayyorlash, dastur yoki qo'lda boshqarish rejimini sozlash
				D2.02.3	Metall detallarni texnik talabga muvofiq kesish, silliqlash, frezalash yoki burg'ulash
				D2.03.3	Ish jarayonida ishlov sifatini o'lchov asboblari bilan nazorat qilish va aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish
		D3.3	Texnik xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish hisobotini yuritish	D3.01.3	Dastgoh va asbob-uskunalarining tozaligini saqlash, profilaktik tekshiruvlarni amalga oshirish
				D3.02.3	Texnik nosozliklarni aniqlash va rahbarga yoki sozlovchiga xabar berish
				D3.03.3	Bajarilgan ishlar hajmi, ishlov berilgan detallar soni va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqarish jurnallarini to'ldirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori
Mashg'ulot nomining kodi	72232
TMR bo'yicha malaka darajasi	2
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyat uchun belgilangan minimal yoshga ega bo'lishi talab etiladi. Jinsga nisbatan maxsus cheklovlar mavjud bo'lsa, ular hisobga olinadi Mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan sog'liq darajasiga ega bo'lishi va tibbiy ko'rikdan o'tishi shart Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;

	- Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim,tayanch o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	I/Ch 2 — 4 razryadli Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Metall kesuvchi avtomat uskunalar operatori
	3	Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 Ishlab chiqarish liniyasini ishga tayyorlash va ishga tushirish	A1.01.2 Ish joyini va liniya elementlarini ishlab chiqarish jarayoni uchun tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini tozalash, ishlab chiqarish liniyasiga tegishli asbob-uskunalar va himoya vositalarini joylashtirish
		2. Liniya elementlari (konveyer, bunker, manipulyator, uzatish mexanizmlari)ni ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo bilan ta'minlash
		3. Ishga tushirishdan oldin dastgoh va qurilmalarning umumiy ishga tayyorligini (yoritish, quvvat manbai, xavfsizlik moslamalari) vizual tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini sanitariya va xavfsizlik talablari asosida tayyorlash
		Liniya elementlarini ishlab chiqarish jarayoniga mos holda to'g'ri joylashtirish va ulanishlarni tekshirish
		Asbob-uskunalarining ishga tayyor holatini aniqlash va oddiy nosozliklarni bartaraf etish
		Bilimlar:
		Ish joyini tayyorlash bo'yicha texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari
		Avtomat va yarimavtomat liniya elementlarining tuzilishi va ularning o'zaro ishlash prinsiplari
		Ishlab chiqarishni boshlashdan oldingi texnik tekshiruv va nazorat tartibi haqidagi asosiy me'yoriy ko'rsatmalar
A1.02.2 Texnologik kartalarga muvofiq dastgohlarni	Mehnat harakatlari:	
	1. Texnologik karta (yo'riqnoma) talablariga muvofiq dastgoh parametrlarini (tezlik, bosim, harorat va boshqalar) dastlabki sozlash	

	sozlash va ishga tushirish	2. Dastgohning mexanik qismlari va boshqaruv tugmalarini ishga tayyor holatda tekshirish 3. Sinov ishga tushirishni amalga oshirib, dastgohning ishlash holatini kuzatish va natijalarni rahbar (sozlovchi)ga yetkazish Ko'nikmalar: Texnologik hujjatlar asosida dastgoh sozlamalarini to'g'ri o'rnatish Asosiy boshqaruv pultlari, mexanik elementlar va xavfsizlik tizimlaridan foydalanish Ish jarayonida paydo bo'ladigan oddiy nosozliklarni aniqlash va rahbarga xabar berish Bilimlar: Texnologik kartalar mazmuni, belgilar va asosiy texnik parametrlari Dastgohning boshqaruv tizimi, mexanik elementlari va xavfsizlik qurilmalari tuzilishi Ishga tushirish tartibi, sinov rejimi va nazorat usullari bo'yicha ishlab chiqarish yo'riqnomalari
	A1.03.2 Ishlab chiqarish jarayonini boshlashdan oldin sinov ishlarini amalga oshirish	Mehnat harakatlari: 1. Dastgoh va liniya elementlarini qisqa muddatli sinov rejimida ishga tushirib, ularning ishlash holatini kuzatish 2. Sinov davomida asbob-uskunalarining titrash, tovush, harakat muvofiqligi va xavfsizlik elementlarini tekshirish 3. Sinov natijalari bo'yicha aniqlangan oddiy nosozliklarni bartaraf etish yoki ustaga (sozlovchiga) xabar berish Ko'nikmalar: Sinov ishlarini texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda bajarish Dastgoh ish faoliyatidagi nosozlik belgilarini (harakatdagi kechikish, ortiqcha shovqin, titrash) aniqlash Sinov natijalari bo'yicha rahbar yoki sozlovchiga hisobot berish Bilimlar: Sinov ishlarini o'tkazish tartibi, xavfsizlik talablari va texnologik nazorat qoidalari Dastgohlarning mexanik, pnevmatik va elektr tizimlarining ishlash prinsiplari Sinov paytida kuzatiladigan odatiy nosozlik turlari va ularni bartaraf etishning asosiy usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishlab chiqarish liniyasini ishga tayyorlash va ishga tushirish bo'yicha amaldagi yo'riqnomalar asosida mustaqil harakat qilish 2. Oddiy texnik sozlash ishlarini va dastlabki sinov jarayonlarini mustaqil bajarish

		3. Ishlab chiqarishni boshlashdan oldin zarur xavfsizlik choralarini ko'rish bo'yicha qarorlarni mustaqil qabul qilish, biroq yakuniy ishga tushirish rahbar nazorati ostida amalga oshirish
A2.2 Dastgoh va qurilmalarning ishlash jarayonini kuzatish va boshqarish	A2.01.2 Liniya faoliyatini doimiy monitoring qilish, jarayon parametrlari (tezlik, bosim, harorat)ni kuzatish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishlab chiqarish liniyasining boshqaruv paneli orqali asosiy jarayon parametrlarini (tezlik, bosim, harorat) muntazam kuzatish
		2. Normativ qiymatlardan og'ish holatlarini aniqlab, darhol rahbar yoki sozlovchiga xabar berish
		3. Ish jarayonida parametrlarning o'zgarishini yozib borish (log) va ishlab chiqarish daftariga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Monitoring ekranlari, indikatorlar va o'lchov asboblardan to'g'ri foydalanish
		Tezlik, bosim, harorat kabi texnologik parametrlarning o'zgarishini aniqlash
		Og'ish holatlarida xavfsiz to'xtatish yoki rahbarga xabar berish tartibini bilgan holda harakat qilish
		Bilimlar:
		Liniya jarayonining asosiy texnologik parametrlariga (tezlik, bosim, harorat) oid me'yor va chegaraviy qiymatlar
	A2.02.2 Ish jarayonida yuzaga kelgan oddiy nosozliklarni bartaraf etish	Asosiy o'lchov asboblari va sensorlarning ishlash prinsipi hamda ularning ko'rsatkichlarini o'qish qoidalari
		Monitoring jarayonida xavfsizlik, me'yoriy nazorat va hisobot yuritish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish jarayonida paydo bo'lgan oddiy texnik nosozliklarni (tiqilish, tasmadan chiqish, signal nosozligi va h.k.) aniqlash
		2. Jarayonni xavfsiz tarzda to'xtatib, nosozlikni bartaraf etish yoki uni sozlovchiga ma'lum qilish
		3. Nosozlik sabablari va bajarilgan chora-tadbirlarni ish jurnali (hisobot daftariga)da qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Oddiy mexanik va elektr nosozlik belgilarini aniqlash
		Nosozlikni xavfsiz usulda bartaraf etish (tozalash, qismlarni joyiga keltirish, qayta ishga tushirish)
		Texnik muammoni to'g'ri aniqlab, u haqda rahbar yoki sozlovchiga aniq axborot berish
		Bilimlar:
		Ish jarayonida uchraydigan tipik nosozliklar turlari va ularning sabablari
		Dastgoh va liniya elementlarini xavfsiz to'xtatish, qayta ishga tushirish tartibi
		Nosozliklarni hujjatlashtirish, hisobot yuritish va texnik xizmatga xabar berish qoidalari

	A2.03.2 Texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlik talablari bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish	Mehnat harakatlari: 1. Dastgoh va liniya uskunalarida ish boshlashdan oldin texnik holatini vizual tekshirish va xavfsizlik moslamalarining to'g'ri ishlashini aniqlash 2. Ish jarayonida mehnat xavfsizligi, elektr xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish 3. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha belgilangan tartibda profilaktik tozalash, moylash va sozlash ishlarini bajarish
		Ko'nikmalar: Texnik xizmat ko'rsatish rejasiga muvofiq profilaktika va nazorat ishlarini mustaqil bajarish Ish joyida xavfsizlik belgilarini to'g'ri talqin qilish va ularga muvofiq harakat qilish Favqulodda holatlarda uskunani xavfsiz to'xtatish va rahbarga axborot berish
		Bilimlar: Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va sanitariya normalari bo'yicha asosiy talablar Avtomat va yarimavtomat liniyalarining texnik xizmat ko'rsatish tartibi va reglamentlari Ish joyida yuzaga keladigan xavf omillari va ularni bartaraf etish usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Dastgoh va avtomatik liniyalarning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun javobgarlik 2. Ish jarayonida paydo bo'lgan oddiy texnik muammolarni mustaqil hal qilish 3. Murakkab nosozlik yoki texnik xavf holatlarida yuqori malakali mutaxassislar bilan hamkorlikda qaror qabul qilish
A3.2 Mahsulot sifatini nazorat qilish va ishlab chiqarish natijalarini rasmiylashtirish	A3.01.2 Tayyor mahsulotni vizual va o'lchov vositalari orqali tekshirish	Mehnat harakatlari: 1. Tayyor mahsulotni tashqi ko'rinishiga ko'ra (sirt silliqligi, shakli, rang o'zgarishi va nuqsonlar) vizual tekshiruvdan o'tkazish 2. O'lchov vositalari (mikrometr, shtrix, kalibr, shablon va boshqalar) yordamida mahsulotning o'lchamlarini nazorat qilish 3. Tekshiruv natijalarini belgilangan hujjatlarga qayd etish va me'yordan og'ish holatlarida rahbarga axborot berish
		Ko'nikmalar: Vizual nazorat va o'lchash asboblari bilan sifat parametrlarini aniqlash Sifat talablari va texnik chizmalar asosida mahsulotni baholash O'lchov natijalarini tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlash
		Bilimlar:

		Sifat nazorati va o'lchov texnikasi asoslari, o'lchov vositalarining qo'llanilishi va kalibrlash talablari
		Mahsulot sifati bo'yicha texnik shartlar va normativ hujjatlar mazmuni
A3.02.2 Sifat me'yorlariga mos kelmagan mahsulotlarni ajratish va xabar berish		Defektlarni aniqlash usullari va ularni hujjatlashtirish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Vizual yoki o'lchov natijalari asosida sifat me'yorlariga javob bermaydigan mahsulotlarni aniqlash
		2. Nuqsonli mahsulotlarni alohida joyga ajratish va tegishli belgilash (yorliq, kod, raqam) ishlarini bajarish
		3. Aniqlangan kamchiliklar to'g'risida smena ustasi yoki sifat nazorati bo'limiga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Mahsulot sifati bo'yicha me'yoriy hujjatlarni o'qish va ularga muvofiq baholash
		Nuqsonli mahsulotlarni tez va to'g'ri ajratish hamda ularni hisobga olish tartibini bajarish
		Sifat nazorati jarayonida aniqlangan kamchiliklar haqida aniq va o'z vaqtida axborot berish
		Bilimlar:
		Mahsulot sifati va nuqson turlari bo'yicha texnik talablar va ishlab chiqarish standarti
		Sifat nazorati bo'yicha hujjat yuritish, hisobot va xabar berish tartibi
		Ishlab chiqarishda nuqsonlarning asosiy sabablari va ularni oldini olish choralari
	A3.03.2 Ish natijalarini ishlab chiqarish hisobotida qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishlab chiqarish jarayonida bajarilgan ish hajmi, ishlatilgan materiallar va tayyor mahsulot miqdorini qayd etish
		2. Kunlik yoki smenalik ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini belgilangan shakldagi hisobot jurnallariga kiritish
		3. Ish jarayonida aniqlangan nosozliklar, to'xtalishlar va mahsulot sifati bo'yicha ma'lumotlarni rahbarga yetkazish
		Ko'nikmalar:
		Ishlab chiqarish jarayoniga oid ma'lumotlarni to'g'ri va aniq qayd etish
		Elektron yoki qog'oz shakldagi hisobot blankalarini to'ldirish
		Ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish uchun asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va solishtirish
		Bilimlar:

		Ishlab chiqarish hisobotlari yuritish tartibi va hisobot shakllari (kunlik, haftalik, oylik) bo'yicha me'yorlar
		Ma'lumotlarni qayd etish, saqlash va topshirish bo'yicha ichki korxona reglamentlari
		Ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy ahamiyati
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Belgilangan texnik reglamentlar va yo'riqnomalarga muvofiq holda sifat nazoratini mustaqil amalga oshirish
		2. Sifat talablariga javob bermagan mahsulotlarni ajratish, belgilash va xabar berish bo'yicha qaror qabul qilish
		3. Ishlab chiqarish natijalarini rasmiylashtirishda rahbarning umumiy ko'rsatmalari asosida mustaqil ishlash, biroq yakuniy nazorat natijalarini rahbarga taqdim etish
		4. Mahsulot sifatining texnik talablar va standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgarlik
		5. Ishlab chiqarish jarayonida aniqlangan nuqsonlar, me'yordan og'ishlar va ularni hujjatlashtirishda aniqlik uchun mas'ullik
	Texnik va/yoki texnologik talab	
	Avtomat va yarimavtomat ishlab chiqarish liniyalari – mahsulotni ketma-ket operatsiyalar asosida qayta ishlash, yig'ish yoki qadoqlash uchun mo'ljallangan Boshqaruv pultlari va operator panellari (HMI, PLC interfeyslar) – texnologik jarayon parametrlarini nazorat qilish va boshqarish uchun Sensor va aktuator tizimlari – jarayon tezligi, bosim, harorat, sath va harakatni avtomatik boshqarish uchun Transportyorlar, manipulyatorlar va robotlashtirilgan qo'llar – xomashyo va tayyor mahsulotlarni uzatish, joylashtirish yoki yig'ish uchun O'lchov va nazorat vositalari – mikrometr, shtrix, indikator, kalibr, o'lchov shablonlari, vizual nazorat vositalari Sovutish, moylash va pnevmatik tizimlar – dastgohlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun Kompyuterli dasturlashtirilgan tizimlar (CNC, SCADA) – ishlab chiqarish jarayonini dastur asosida boshqarish	

Kasbning nomi	Metall kesuvchi avtomat uskunalar operatori
Mashg'ulot nomining kodi	72232
TMR bo'yicha malaka darajasi	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyat uchun belgilangan minimal yoshga ega bo'lishi talab etiladi. Jinsga nisbatan maxsus cheklovlar mavjud bo'lsa, ular hisobga olinadi Mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan sog'liq darajasiga ega bo'lishi va tibbiy ko'rikdan o'tishi shart Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim,tayanch o'rta ta'lim

Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	I/Ch 2 — 5 razryadli	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori
	3	Metallga ishlov berish maxsus dastgohlari stanokchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 Metall kesuvchi avtomat uskunalarini ishga tayyorlash	B1.01.3 Ish joyini mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq tayyorlash, zarur asbob-uskunalar va texnik hujjatlarni tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini ishlab chiqarish topshirig'iga muvofiq tayyorlash, asbob-uskunalar joylashuvini tekshirish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish
